
“MAHALLA IFTIXORI” KO’KRAK NISHONI MUBORAK BO’LSIN AZIZ RISHTONLIKLAR!

Kecha Farg’ona shahridagi Afrosiyob tantanalar majmuasida 22 mart — Mahalla tizimi xodimlari kuni nishonlandi.

Mahalla tizimini rivojlantirish, uning mavqeini mustahkamlash, mamlakatimizda olib borilayotgan keng ko’lamli islohotlarni amalga oshirishdagi faolligi hamda bu borada erishgan alohida yutuqlari uchun Rishton tumani "Istiqbol" mahalla fuqarolar yig’ini raisi Hamidaxon Ziyayeva, "Oqtomir" mahalla fuqarolar yig’ini raisi Adhamjon Oripov, "To’da" mahalla fuqarolar yig’ini raisi Baxtiyorjon Ahrorqulovlar "Mahalla iftixori" ko’krak nishoni bilan taqdirlandilar.

-???? Bugungi kun hayotimdagi unutilmas kun bo’ldi, desam mubolag’a bo’lmaydi. Ko’ksimda “Mahalla iftixori” ko’krak nishoni taqilarkan, benihoyat ruhlantim, yuksak g’urur va iftixor tuyg’usini his qildim. Bu ko’krak nishoni mening timsolimda mahalladoshlarim, har xonadon ahliga iftixor bag’ishlashi shubhasiz. Axir, har mahalla go’yo bir oila. Neki, yutuqlarga erishsak, bu hamjihatlikdagi sa’y-harakatlarimiz samaradir. Tinch va osoyishta, katta shaharlarga bo’ylashayotgan qishloqda yashash zavqi mahalladoshlarimiz qalbida shukronalikni yana oshirmoqda”, - deydi “To’da” mahalla fuqarolar yig’ini raisi Baxtiyorjon Ahrorqulov.

✿ Mukofotlanganlarni samimiy tabriklaymiz, kelgusi ishlariga rivojlar tilaymiz !

2023-03-23 09:42:56